



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 3-avgust, payshanba,
92 (23.813)-son

**KUN
HIKMATI**

Kindik qoni to'kilgan
joyni ulug'lash, u
bilan faxrlanish yaxshi
fazilat, ammo unga
munosib ham bo'lish
kerak

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O'ZBEKISTON UCHUN!



OQQO'RG'ONLIK HAYOTI O'ZGARADI

Shu kunlarda Payariq tumanidagi Oqqo'rg'on va Sorisuv mahallalarida "Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" mezonlarini joriy etish, hudud infratuzilmasini yaxshilash, aholi bandligini ta'minlash va og'ir hudud toifasidan chiqarish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada 42 banddan iborat "Yo'l xaritasi" tayyorlanib, har bir band ijrosi respublika ishchi gu-ruhi tomonidan muvofiqlashtirib borilmoqda.

Jumladan, hudud aholisi elektr ta'minotini yaxshilash maqsadida ikkala mahallada yaroqsiz simyog'ochlar o'rnida 480 ta tayanch beton ustun o'rnatish, 3 ta qo'shimcha transformator qo'yish, 70 dona yuqori kuchlanishli havo tarmog'i va 10,2 kilometr SIP kabel tarmog'i tortish rejalashtirilgan.

Oqqo'rg'on mahallasidagi yetti va Sorisuvda-gi uch ichki ko'chaning qariyb 2 kilometr qismini shag'allashtirish, 3,6 kilometr umumfoydalanuvdagi avtomobil yo'llarini kapital ta'mirlash ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari, mahallalardagi markaziy ko'chalarda piyodalar yo'laklari quriladi, tungi yori-tish chiroqlari o'rnatiladi. Ariq va zovurlar tozalana-di, qabristonlar hududida obodonlashtirish ishlari bajariladi. "Xavfsiz mahalla" tamoyili asosida ko'cha-larda kuzatuv kameralari qo'yiladi. Oqqo'rg'on ma-hallasi uchun yangi bino quriladi. Shuningdek, ta'lim va tibbiyot muassasalarida ta'mirlash ishlari amalga oshiriladi, quyosh panellari o'rnatiladi.

Mahallalarda "xonadonbay" o'rganish asosida aholining turmush sharoitini yaxshilash, tomorqadan samarali foydalanish, bandligini ta'minlash, oilalar-dagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, tib-biy ko'riq, sport musobaqalari, intellektual tanlovlar

o'tkazish, bo'sh ish o'rinlari yarmarkalari tashkil etish va boshqa vazifalar belgilangan. Ayni payt-da barcha yo'nalishlar bo'yicha mas'ul tashkilotlar tomonidan amaliy ishlar olib borilmoqda.

Kecha viloyat hokimi E.Turdimov va respublika ishchi guruhi mas'ullari ishtirokida Oqqo'rg'on va Sorisuvdagi ishlar viloyat tashkilotlari va Payariq tumani hokimligi mas'ullari, mahallalar faollari ishtirokida muhokama etildi.

"Yo'l xaritasi"da belgilangan har bir vazifa va chora-tadbirlarni o'z vaqtida, sifatli bajarish yuzasi-dan mutasaddilarga topshiriqlar berildi. Amalga oshiriladigan ishlar aholi hayotini o'zgartirishi va roziligiga xizmat qilishi zarurligi ta'kidlandi.

Shuningdek, kecha viloyat hokimi Urgut tuman-i-ni Mergancha va Bulung'ur tumanining G'o'bdin mahallalarida barpo etilayotgan "Yangi O'zbekiston" massivlari qurilishi bilan tanishdi. Loyihalarga ko'ra, ushbu hududlarda massivlarda 50 tadan kam bo'lma-gan ko'p qavatli uylar, ijtimoiy soha, bozor va maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari, dam olish va ko'ngilochar maskanlar barpo etilmoqda. Massivga tutash hudud-larda kichik sanoat zonalarini tashkil etiladi.

Viloyat hokimi quruvchilarning fikrlarini, ularni qiynayotgan muammolarni eshitib, muammoli ma-salalar yechimiga mas'ullarni biriktirdi, ijrosi viloyat hokimligi tomonidan nazoratga olindi.

ISLOHOTLAR MAZMUNI - INSONNI ROZI QILISH

Bu mamlakatimiz mustaqilligining o'ttiz ikki yillik bayrami tadbirlarining bosh mezoniga aylandi

2023-yil mamlakatimiz hayotida ulkan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy islohotlar izchil davom etayotgan yillar qatorida o'tmoqda. Bu ishlar mohiyat-e'tibori bilan mam-lakatdagi siyosiy islohotlar bilan bog'liqdir. Ammo barcha islohotlar zamirida inson manfaati, insonni rozi qilishdek ulug' maqsad turganligi e'tiborga molik.

Kundalik hayotimizda kechayotgan jarayonlar va o'zgarishlarga o'rganib, ko'nikib qolgandekmiz. Aslida ko'zimiz o'rgangan, tafakkurimiz moslash-gan bunday keng qamrovli islohotlar o'z-o'zidan bo'lmisligini doim ham o'ylab ko'rmaymiz. Bun-yodkorlik ishlarining ko'lami yurtimizning markaziy shaharlaridan tortib, chekka hududlaridagi qishloq va mahallalarga qadar yetib borgani, bu o'zga-rishlar inson manfaatlariga qaratilgani quvonarli. Bugun o'z uyini zamonaviy ko'rinishga keltirayot-gan, eski xonadonini yangilayotgan, iqtisodini

yaxshilashga intilayotgan yurtdoshlarimiz ko'pay-gan. Yo'l, ichimlik suvi, maktab, bog'cha kabi muammolarga "ochiq budjet" orqali ovoz berib, o'z mahallasini obod qilishga intilayotgan yurt-doshlarimiz rozilik va mamnuniyat bilan yurtimizda-gi islohotlarda faol ishtirok etishga intilmoqda.

Ko'zimiz o'rganib qolgan o'zgarishlarni sana-sak, anchagina o'zgarishlarga guvoh bo'lganimizni anglaymiz.

(Davomi 2-sahifada) >>>

"O'zbekiston — 2030" strategiyasi

Nima uchun fikr bildirish yoki mulohaza qilish shart?

Mahallangizda, yaqinlaringiz orasi-da kambag'allar bor. Ammo ularning holatini yaxshilashni o'ylab ko'rgan-misiz? Tabiiyki, yo'q. Agar o'ylaganin-gizda ham bunga chora topmagansiz. Hukumat esa nafaqat uni topyapti, balki kambag'allikka tushish xavfi bo'lganlarning ham daromadini oshi-rishni rejalashtiryapti.

Qandayligini bilmoqchi bo'lsan-giz, kelgusi 7 yilga mo'ljallangan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi va uni 2023-yilda amalga oshirish cho-ra-tadbirlari loyihalari bilan tanishing. U joriy yilning 31-iyulidan regulation.gov.uz va 2030.strategy.uz portallar-i-da muhokamaga qo'yilgan.

Shu o'rinda yana bir ma'lumot, O'zbekistonda kambag'allikka tushish xavfi mavjud bo'lgan 4,5 million aholi mavjud. Bu "O'zbekiston — 2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirishga qaratilgan Prezident qarori loyihasida keltirilgan. Xususan, jon boshiga oylik daroma-di 50 dollardan oshmaydigan aholi qatlamini, shu jumladan, 3 million yoshlarning mehnat qobiliyatini ish-ga solish orqali kambag'allikdan olib

chiqish belgilanmoqda.

Darvoqe, mazkur topshiriq ijrosi joriy yilning sentabrida amalga oshi-rilarkan.

Xo'sh, haliyam qaror loyihasi bilan tanishishga qaror qilmadingizmi? Eslatib o'tamiz, loyiha axborot asri-da hech bo'lmasa, xabardorlik uchun ham muhim. Zotan, unda strategiya-mizning asosiy yo'nalishlarini bilib olish va o'rganish mumkin.

Qiziqib ko'ring, "Taraqqiyot strate-giyasi" markazi tomonidan tayyor-langan "O'zbekiston — 2030" strate-giyasida ilgari surilgan 5 ta yo'nalish bo'yicha asosiy samaradorlik ko'rsat-kichlari aks ettirilgan infografikalar jamlanmasi sizni befarq qoldirmaydi.

Birgina misol, "Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish" yo'na-lishida 44 ta maqsad rejalashtirilyapti. Qiziqmasmi?

Aholining o'rta umr davomiyligi-ni 78 yoshga yetkazish qanday amalga oshirilishi-chi?

Fikr-mulohazalarni regulation.gov.uz va 2030.strategy.uz orqali joriy yilning 9-avgustigacha jo'natish mumkin.

Bu gap viloyat hokim-ligida joriy yilning birinchi yarim yilligida viloyatning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari ijrosi muhokamasiga qaratilgan yig'ilishda aytiladi.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar:

Yarim yillik natijalar qoniqarli emas

Viloyat hokimi E.Turdimov boshqargan muhokamada sanoat, xizmatlar, qish-loq xo'jaligi, pudrat ishlari, chakana savdo sohalardagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar rahbar va mas'ullar ishtiroki-da birma-bir tahlil qilindi.

Ta'kidlanishicha, yarim yillik yakunlari bo'yicha sanoat so-hasida 25 ta, jumladan, Samarqand shahrida 9 ta, Urgut tumanida 5 ta, Jomboy tumanida 3 ta, Kattaqo'rg'on shahri, Kattaqo'rg'on va Past Darg'om tumanlarida 2 tadan, Narpay va Samar-qand tumanlarida bittadan yirik korxonalarda ish hajmi kamaygan.

Shuningdek, o'tgan yilga nisbatan ish hajmini kamaytirgan sanoat so-hasidagi 192 ta, xizmat ko'rsatish tarmog'idagi 171 ta korxona faoliyati tahlil qilindi. Bu korxonalardagi muammolar, ularni bartaraf etish orqali tadbirkorlik subyektlarining ish faoliyatini jonlantirish, yangi loyihalarni amalga oshirish borasida olib borilayotgan ishlar yuzasidan viloyat hokimining o'rinbosarlari, tarmoq, hudud va korxo-na rahbarlarining hisoboti tinglandi. Har bir holat muhokama etilib, muam-molarni bartaraf etish bo'yicha aniq muddatlar va ularga mas'ullar belgilandi.

Muhokama davomida 2 nafar rahbar ishdan olindi, 9 nafari "hayfsan" intizomiy jazosi qo'llanilishi belgilandi.

O'z muxbirimiz.

TIBBIYOTGA E'TIBOR OSHMOQDA

Davlatimiz rahbari tomonidan 2023-yil 1-avgustda "Otorinolaringologiya xizmatini takomillashtirish va uning ko'lamini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror qabul qilindi.

Unga ko'ra, 2023-yil 1-sentabrdan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan Respublika ixtisoslashtiril-gan otorinolaringologiya va bosh-bo'yin kasalliklari ilmiy-amaliy tibbiyot markazi tashkil qilinadi.

a) Markaz:

otorinolaringologiya yo'nalishidagi ishlarni mu-vofiqlashtiradi hamda "Markaz — hududiy tibbiyot muassasalari — tuman (shahar) tibbiyot muassasa-lari" tizimi asosida o'z faoliyatini tashkil etadi;

otorinolaringologik va bosh-bo'yin kasalliklari sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni yo'lga qo'yadi, ushbu yo'nalishlarda mutaxassislarni o'qitish va ularning ko'nikmalarini rivojlantirish cho-ralarini ko'radi hamda ilmiy maktabni shakllantiradi;

hududlarda otorinolaringologik va bosh-bo'yin kasalliklarini tashxislash va davolashning zamonaviy usullarini amaliyotga joriy etadi hamda yuqori tex-nologik amaliyotlar ko'lamini kengaytiradi;

sog'liqni saqlash tizimining birlamchi tibbiy-sani-tariya yordami muassasalarida otorinolaringologik va bosh-bo'yin kasalliklari profilaktikasi, ularni erta aniqlash va davolash dasturlarini amaliyotga joriy etadi;

nodavlat tibbiyot tashkilotlari bilan hamkorlikda otorinolaringologik va bosh-bo'yin kasalliklari-ni davolashning zamonaviy va yuqori texnologik usullarini davlat va nodavlat tibbiyot tashkilotlari

amaliyotiga joriy etadi;

b) 2024/2025-o'quv yilidan boshlab markaz-da otorinolaringologiya ixtisosligi bo'yicha tibbiyot kadrlarini klinik ordinatura orqali tayyorlash tashkil qilinadi;

v) Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar ko'p tarmoqli tibbiyot markazlarining otorinolarin-gologiya bo'limlari markazning yuridik shaxs ma-qomiga ega bo'lmagan hududiy filiallari hisoblanadi.

Markaz va uning hududiy filiallari tibbiyot yo'nali-shidagi oliy, professional va o'rta maxsus ta'lim muassasalarining tegishli kafedralari uchun klinik baza sifatida faoliyat yuritadi.

2024-yil 1-yanvardan boshlab otorinolaringologiya va yuz-jag' jarrohligi yo'nalishlaridagi tibbiy xizmat-lar imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarga davlat budjeti mablag'lari hisobidan nodavlat tibbiyot tashkilotlari tomonidan ko'rsatilishiga ruxsat beriladi.

Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida "Eshitish zaiflashuvini tashxislash, davolash va reabilitatsiya muammolari" ilmiy laboratoriyasi tashkil etiladi.

2024-yildan boshlab Respublika shoshilinch tib-biy yordam ilmiy markazi va uning hududiy filiallari qabul-dagnostika bo'limida tunu kun xizmat ko'rsa-tadigan qo'shimcha otorinolaringolog va yuz-jag' jarrohi shtat birliklari kiritiladi.



Prezident qaroriga ko'ra



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining shu yil 31-iyulda qabul qilingan "Koreya eksport-import banki bilan hamkorlikda "Hududiy tibbiyot muas-sasalarini tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlash" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida qayd etilishicha, Koreya Respublikasi hukumati tomonidan "Hududiy tibbiyot muassasalarini tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlash" loyihasini amalga oshirish uchun Koreya eksport-import bankining Iqtisodiy rivojlanish va hamkorlik jamg'armasidan O'zbekiston Res-publikasiga 10 yil imtiyozli davr bilan 40 yil muddatga jami 74 million AQSH dollari ekvivalentidagi Koreya vonida imtiyozli qarz ajratiladi.

ISLOHOTLAR MAZMUNI - INSONNI ROZI QILISH

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Gapni siyosiy islohotlarga taqaganimiz bejiz emasligini ochiqlashga oʻtsak. Avvalo, 2022-yilda boshlangan konstitutsiyaviy islohotlar, oddiy qilib aytsek, Konstitutsiyamizni oʻzgartirish orqali jamiyatimizni oʻzgartirish maqsadida boshlangan ishlar koʻp millatli, koʻp millionli xalqimizning xohish-irodasi bilan 30-aprelda boʻlib oʻtgan referendumda yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tasdiqlangani yilning eng katta siyosiy voqeligi boʻldi, deyish mumkin. Referendumda ovoz berishda ishtirok etgan 16 million 667 mingdan ortiq fuqaroning 15 million 34 ming nafari yoki 90,21 foizi referendumga qoʻyilgan masalani yoqlab ovoz berdi.

Shundan soʻng davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev muddatidan ilgari Prezidentlik saylovlarini oʻtkazish tashabbusini ilgari surgan islohotlar shiddatini yanada tezlashtirdi, desak mubolagʻa boʻlmaydi. Saylovda yurt-doshlarimiz faol ishtirok etgani ularning inson manfaati, inson qadri ustuvor islohotlarga befarq emasligini yana bir bor koʻrsatdi.

Saylovchilar bilan muloqotlar jarayonida bizning partiyamizdan nomzod – Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 5 ta



ulugʻvor maqsad asosida kelgusi 7 yillikda amalga oshiriladigan saylovoldi dasturi insonparvarligi, aniq va mukammalligi, taraqqiyot va rivojlanishning izchilligini taʼminlash mexanizmlarini toʻla-toʻkis aks ettirgani bilan saylovchilarning ishonchini qozondi.

Yilning yana bir siyosiy voqeligi - saylangan Prezidentning parlament palatalari qoʻshma majlisidagi tantanali qasamyod qabul qilish marosimidagi maʼruzasi boʻldi, deyish mumkin. Davlatimiz rahbari oʻz soʻzi avvalida "Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylanishimni men inson huquq

va erkinliklarini, xalq manfaatini taʼminlashga qaratilgan siyosatimizning yana bir yuksak eʼtirofi sifatida qabul qilaman.

Boʻlib oʻtgan Prezident saylovi yangilangan Konstitutsiyamiz asosida oʻtkazilgani unga chinakam xalqchil ruh va mazmun bagʻishladi. Ushbu saylovda xalqimiz oʻz xohish-irodasini eʼmin-erkin bildirib, Yangi Oʻzbekiston uchun ovoz berdi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

Mamlakatimiz hayotidagi gʻoyat muhim va masʼuliyatli bu siyosiy jarayon el-yurtimiz bilan birgalikda tanlagan va amalga oshirayotgan milliy taraqqiyot yoʻlimiz naqadar toʻgʻri ekanini yana bir marta tasdiqladi", deya taʼkidladi.

Islohotlar mazmuni yurtimizda yashayotgan har bir yurtdoshimizni bugungi kunidan rozi, ertangi kunga katta ishonch bilan yashash va intilishi, erkin va farovon hayot kechirishi uchun munosib sharoit yaratishdir. Shunday ulugʻ va ezgu maqsad yoʻlida barchamizni birlashtirgan islohotlarimiz bardavom boʻlishidan, albatta, hammamiz birdek manfaatdormiz.

Ilhom BOTIROV,
OʻzLiDeP viloyat kengashi
raisining birinchi oʻrinbosari -
apparat rahbari.

101 ming nafar fuqaroning
pensiya va nafaqasi oshdi

Joriy yilning 28-iyulida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qoʻllab-quvvatlashga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi Farmoni qabul qilindi.

Farmonga muvofiq, 2023-yil 1-avgustdan boshlab zarur ish stajiga ega boʻlmagan keksa yoshdagi fuqarolarga beriladigan nafaqa, oʻzgalar parvarishiga muhtoj boʻlgan 18 yoshgacha nogiron bolalarning parvarishi bilan band boʻlgan bolaning qonuniy vakiliga (qarovchilarga), ish staji toʻliq boʻlmagan chogʻdagi yoshga doir pensiyaning eng kam miqdori qoʻshimcha toʻlovni hisobga olgan holda oyiga 568 ming soʻm etib belgilandi.

Shuningdek, boquvchisini yoʻqotganlik nafaqasi oluvchilarning bir nafar mehnatga qobiliyatsiz oila aʼzosi uchun ham nafaqa miqdori oyiga 568 ming soʻm etib belgilanib va keyingi har bir nafar mehnatga qobiliyatsiz oila aʼzosi uchun 198 ming soʻmdan qoʻshiladigan boʻldi.

Viloyatimiz pensiya jamgʻarmasi hisobida bugungi kunda zarur ish stajiga ega boʻlmagan keksa yoshdagi fuqarolar 6669 nafar, ish staji toʻliq boʻlmagan chogʻdagi yoshga doir pensiya oluvchilar 56615 nafar, oʻzgalar parvarishiga muhtoj boʻlgan 18 yoshgacha nogiron bolalarning parvarishi bilan band boʻlganlar (qarovchilar) 7312 nafarni tashkil etadi. Bundan tashqari, boquvchisini yoʻqotganlik nafaqasi oluvchilar 5833 nafar, boquvchisini yoʻqotganlik pensiyasi oluvchilar 24741 nafar. Umuman, mazkur toifadagi nafaqa va pensiya miqdori oshirilgan fuqarolar viloyat boʻyicha 101200 nafardir.

Avgust oyidan yuqorida keltirilgan toifadagi barcha fuqarolarga oshirilgan miqdordagi pensiya va nafaqa pullarini olishlari kafolatlanadi.

Abdurashid RAHIMOV,
Budjetdan tashqari pensiya jamgʻarmasi
viloyat boshqarmasi shuʻba rahbari.

Toyloqda donasi 2,2 kilogramgacha
keladigan kartoshka

hosili yigʻib olinmoqda

Bunday hosil sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti Samarqand ilmiy tajriba stansiyasida (Toyloq tumanida joylashgan) kuzatildi.

Tajriba stansiyasi direktori Alisher Ismoilovning tahririyatga maʼlum qilishicha, stansiya dalalarida 2023-yil hosili uchun 11 gektar maydonga kartoshkaning "Bogʻizogʻon", "Ranomi", "Evolyushin", "Arizona", "Silvana" va "Lusinda" navlari ekib yetishtirilgan.

Jamoa tomonidan bahorgi va yozgi muddatlarda kartoshka yetishtirishning resurstejamkor, innovatsion usullari boʻyicha tavsiyanoma chiqarilib, dehqon va fermer xoʻjaliklariga tarqatilgan. Bugungi kunda ITS dalalarida yetishtirilgan kartoshka hosili gektariga 50-52 tonnani tashkil qilib, kartoshka tuganak vazni 2-2,2 kilogramgacha kelmoqda.

Alisher Ismoilovning soʻzlariga koʻra, yuqori hosildorlikka erishishda nafaqat mazkur stansiya olimlari yaratgan yangi kartoshka urugʻlari asosiy omil, shu bilan birga, bu safar olimlar kartoshka yetishtirishning butunlay boshqa texnologiyalaridan foydalanishgan: oʻziga xos agrotexnika, oʻgʻitlash meʼyorlari ham olimlar tomonidan qaytadan koʻrib chiqilgan. Fermerlarga tarqatilgan yuqoridagi tavsiyanoma ham mazkur tajriba asosida ishlab chiqilgan.



Oʻtgan 6 oyda 400 ta
jinoyat ishi qoʻzgʻatilgan

4630 nafar shaxsning buzilgan
huquqlari tiklangan

Bu haqda viloyat prokuraturasi hayʼatining navbatdagi majlisida aytib oʻtildi.

Majlisda joriy yilning 6 oyida qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyat natijalari tanqidiy muhokama qilindi.

Taʼkidlanishicha, qonunga zid boʻlgan mingdan ortiq hujjatlar bekor qilingan, qonunni buzgan 3 mingdan ortiq shaxsning javobgarlik masalasi hal etilgan, jiddiy qonun buzilishi holatlari yuzasidan 400 ta jinoyat ishi qoʻzgʻatilib, 4630 nafar shaxsning buzilgan huquqlari tiklangan.

Tekshirishlar va tergov davomida qariyb 195 milliard soʻmlik zarar undirilishi taʼminlangan.

Firib bermoqchi edi...

Bosh prokuratura huzuridagi Departamentning Kattaqoʻrgʻon shahar boʻlimi tomonidan oʻtkazilgan tergovga qadar tekshiruvda Kattaqoʻrgʻon tumani tibbiyot birlashmasi katta hamshirasi S.Sh. yuqumli kasalliklar boʻlimi 6 nafar hamshirasining ish stavkasiga 0,25 stavkadan qoʻshirib berish evaziga ularning 2200 dollari va 1,1 million soʻmini firibgarlik yoʻli bilan qoʻlga kiritganligi aniqlangan.

S.Sh. tomonidan 800 dollar qaytarilishi protsessual tartibda rasmiylashtirilgan.
Holat yuzasidan Jinoyat kodeksining 168-moddasi (firibgarlik) va 28, 211-moddasi (pora berish) bilan jinoyat ishi qoʻzgʻatilib, tergov harakatlari oʻtkazilmoqda.



Noqonuniy olib oʻtilayotgan

DAVLAT FOYDASIGA OʻTKAZILDI VA 27 MILLION SOʻM JARIMAGA SABAB BOʻLDI

Doniyor (ism-familiyalar shartli) oʻqishni bitirgach, Samarqanddagi turistik firmalardan biriga gid-tarjimon boʻlib ishga kirdi. U firma ishchilari bilan tez til topishdi. Doniyor chet eldan kelgan mehmonlarga xizmat koʻrsatish, xorijga chiqayotgan sayyohlarga tarjimonlik qilish, shuningdek, Oʻzbekistondan Umra safariga ketayotgan ziyoratchilarga xizmat koʻrsatish bilan ham shugʻullanardi.

Joriy yilning mart oyida Doniyor ishlayotgan firma bilan Saudiya Arabistonida hamkorlikda faoliyat olib borayotgan hamqishlogʻi Anvar telefon qilib, Umra safariga ketayotgan ziyoratchilarning 30 ming AQSH dollar pullarini bank orqali emas, balki naqd joʻnatishini, Dubayda ziyoratchilarga mehmonxona va boshqa toʻlovlar yengil boʻlishini aytdi.

Doniyor firmada Umra safariga ketayotgan ziyoratchilarga doktor sifatida biriktirilgan Boburdan 30 ming AQSH dollarini Saudiya Arabistoniga borganda Anvarga berishini iltimos qildi. Bobur bunga rozi boʻldi va ertasiga Doniyor bergan pul va oʻzining yuklarini bojxona nazoratidan oʻtkazayotgandi. "Samarqand-Dubay" yoʻnalishiga chiqayotgan yoʻlovchilardan biri oʻziga tegishli boʻlgan yuklarni roʻyxatdan oʻtkazib, bojxona organiga murojaat etmasdan

bojxona nazorati zonasidan oʻtgan vaqtida shubha uygʻotdi. Shubhali shaxs bojxona nazoratidan oʻtkazilganda, unga tegishli boʻlgan qoʻl sumkada 30 ming AQSH dollari miqdorida chet el valyutasi noqonuniy yoʻli bilan olib oʻtilayotgani aniqlandi.

Bojxona xodimlari Boburdan 30 ming AQSH dollarini nega bojxona deklaratsiyasiga koʻrsatmasdan noqonuniy olib oʻtayotganini soʻraganda, u Oʻzbekistondan valyutani olib chiqish miqdorini bilmaganligi, ushbu pullar firma tarjimoni Doniyorga tegishli ekanligi va unga hozir telefon qilib chaqirishini aytdi. Bir oz vaqt oʻtganidan soʻng Doniyor yetib keldi va haqiqatan ham ushbu pullar unga tegishli ekani va Makka shahrida ziyoratda boʻlgan ellikboshiga yetkazish uchun Boburdan iltimos



qilganini tasdiqladi.

Qonunchilikka koʻra, bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirgan holda tovarlarni bojxona chegarasidan oʻtkazish jinoyati tovarlar bilan bojxona chegarasini amalda kesib oʻtilgan paytdan tugallangan hisoblanadi.

2023-yil 5-may kuni ushbu holat jinoyat ishlari boʻyicha Samarqand shahar sudining ochiq sudida koʻrib chiqildi. Sud mazkur jinoyatni tamomlangan deb hisoblab, dastlabki tergov organi tomonidan fuqaro B.Boqiyevning jinoyatni ochilishida faol yordami va rost koʻrsatuv berganligi uchun toʻgʻri toʻxtamga kelgan deb hisobladi. Sudlanuvchi D.Olimovga jinoyatni tashkil

etishning oʻzi bilan cheklanib, jinoyatning obyektiv tomonini ifodalovchi harakatlarda qatnashmaganligi bois bazaviy hisoblash miqdorining 90 baravari, yaʼni 27 million soʻm miqdorida jarima jazosi tayinlandi. Noqonuniy yoʻli bilan olib oʻtilayotgan 30 ming AQSH dollari esa tegishli tartibda davlat foydasiga oʻtkazildi.

F.ROʻZIBOYEV.

[!\[\]\(f77d429904de075e826df1d11daf9232_img.jpg\) Isteʼmolchi huquqi](#)

Doʻkonlardan xarid paytida har xil holatlarga va baʼzan muammolarga duch kelinadi. Plastik va naqd toʻlov shakli uchun har xil narxlar, reklamada sifatli koʻrsatilgan mahsulot onlayn buyurtma qilinganda sifatsiz boʻlib chiqishi, xarid qilingan tovar uchun chek berilmasligi va hokazo... Xaridor bunday hollarda nima qilishi kerak? Qonunchilikda bunday vaziyatlarga qanday echim koʻrsatilgan?

XARIDOR
nimalarni
bilishi
kerak?



1. Onlayn-doʻkonlar firma nomi va manzilini koʻrsatishi shart.

Sayt va ijtimoiy tarmoqlarda turli mahsulotlar reklama qilinadi. Ularning koʻpida doʻkon nomi va manzili koʻrsatilmagan boʻladi, xaridorlar ham buni deyarli talab qilmaydi. Bunday holda buyurtma kelganidan keyin tovarning sifati yoki koʻrinishi yoqmasa, uni qaytarish imkonini boʻlmaydi.

Qonunchilikka koʻra, sotuvchi oʻz tashkilotining firma nomi, uning joylashgan (yuridik) manzili va ish tartibini isteʼmolchilarga maʼlum qilishi shart. Bunday maʼlumot lavhada aks ettirilishi lozim.

Shuning uchun nimadir xarid qilayotganda har doim sotuvchi firma nomi va manzilini soʻrab olishi kerak.

2. Maʼlumot davlat tilida boʻlishi shart.

Doʻkonlarda sotuvchi haqidagi, savdo qoidalar tovar (ish, xizmat) toʻgʻrisidagi maʼlumotlar isteʼmolchiga davlat tilida taqdim etilishi kerak (Mazkur maʼlumot qoʻshimcha ravishda boshqa tillarda ham taqdim etilishi mumkin).

3. Notoʻgʻri reklama oqibatida isteʼmolchiga yetkazilgan zararni sotuvchi toʻliq qoplashi kerak.

Ishlab chiqaruvchilar va doʻkonlar mahsulotini reklama qiladi. Baʼzi hollarda sotib olingan tovar reklamada koʻrsatilganidek boʻlib chiqmasligi mumkin. Bunday holda xaridor nima qilishi kerak?

Notoʻgʻri reklama oqibatida sotib olingan tovar (ish, xizmat) tufayli isteʼmolchiga yetkazilgan zarar sotuvchi tomonidan toʻliq hajmda qoplanishi lozim. Xaridor buni sotuvchidan talab qilishi va sudga murojaat qilishi mumkin.

4. Chek bermasdan sotish mumkin emas.

Tovar uchun chek olmaslik, bu nafaqat iqtisodiyotga, balki xari-

dorning oʻziga ham zarar. Masalan, tovar cheksiz olib ketildi va sifatsiz boʻlib chiqdi. Bu holatda mahsulotni aynan shu doʻkondan sotib olinganini isbotlab boʻlmaydi.

Qonunchilikka koʻra, oʻldi-sotdi amalga oshirilganda isteʼmolchiga kassa yoki tovar cheki beriladi. Tovarni kassa yoki tovar chekini bermasdan sotish taqiqlanadi.

Doʻkondan xarid qilinganda har doim chek talab qilish kerak.

5. Toʻlov turiga qarab, bitta tovar uchun har xil narx qoʻyish taqiqlanadi.

Mahsulot xarid qilinayotganda "naqdm yoki plastik?" kabi savollar berilishi, tovar uchun plastikda toʻlov qilinganda narx sal qimmatroq boʻlishini aytish hollari uchrab turadi. "Nima uchun toʻlovlar har xil?" degan savolga sotuvchilar soliqlar, pulni hisob raqamdan yechish qiyinligini vaj qiladi. Aslida esa sotuvchi oʻz faoliyatini olib borganligi uchun va unga shunday sharoit yaratib berilganligi uchun soliq toʻlashi kerak.

Qonunchilikda tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun haq toʻlash naqd pulli yoki naqd pulsiz shaklda amalga oshirilishi mumkinligi belgilangan. Shuningdek, sotuvchining haq toʻlash shakliga qarab, tovarning ayni bir markasi (modeli, artikuli), shuningdek, bir xil hajmdagi va sifatidagi ishlar, xizmatlar uchun har xil narxlar (tariflar) belgilashi, shu jumladan, ularni sunʼiy ravishda oshirishi yoki pasaytirishi taqiqlanishi ham koʻrsatib oʻtilgan.

Yuqoridagi kabi holatlar yuzaga kelganda, isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilish organlariga yoki sudga murojaat qilish zarur.

Jahongir ASHUROV,
Raqobatni rivojlantirish va isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilish qoʻmitasi
hududiy boshqarmasi boshligʻi oʻrinbosari.

Barcha yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, chet el investorlari diqqatiga!

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-102-son qaroriga muvofiq, davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarning boʻsh turgan koʻchmas mulk obyektlari hamda ulushlari “E-auksion” elektron savdo platformasi orqali sotilishi belgilangan. Shunga koʻra, quyidagi davlat mulki obyektlari boʻyicha

SAVDOLAR EʼLON QILINADI

	Obyekt nomi	Balansda saqllovchi tashkilot nomi	Joylashgan manzili	Umumiy yer maydoni (ga)	Bino va inshootlar-ning umumiy egallagan maydoni (kv.m)	Savdolarga chiqaril-gan boshlangʻich narxi (soʻm)	Savdo sanasi	Ariza berishning oxirgi muddati
1	Boʻsh turgan bino va inshoot (Ittifoq FYTSH)	“Maroqand neft baza” mas’uliyati cheklangan jamiyati	Narpay tumani “Qozikent” MFY, Ittifoq massivi hududida	0,135	68,33	237 732 600,0	31.08.2023 y.	31.08.2023 y.
2	Boʻsh turgan bino va inshoot (M.Joʻrayev FYTSH)	“Maroqand neft baza” mas’uliyati cheklangan jamiyati	Ishtixon tumani Xalqobod qishlogʻi	0,1337	132	358 000 000,0	31.08.2023 y.	31.08.2023 y.
3	Boʻsh turgan bino va inshoot (Zarafshon FYTSH)	“Maroqand neft baza” mas’uliyati cheklangan jamiyati	Payariq tumani “Choshtepa” MFY, Choshtepa qishlogʻi	0,0826	161,55	278 913 000,0	31.08.2023 y.	31.08.2023 y.
4	Boʻsh turgan bino va inshoot (K.Toʻrayev FYTSH)	“Maroqand neft baza” mas’uliyati cheklangan jamiyati	Past Dargʻom tumani “Lolazor” MFY	0,083956	60,20	161 500 000,0	31.08.2023 y.	31.08.2023 y.
5	Boʻsh turgan bino va inshoot (Sh.Rashidov FYTSH)	“Maroqand neft baza” mas’uliyati cheklangan jamiyati	Past Dargʻom tumani “Koksoy” MFY	0,86293	94,65	221 800 000,0	31.08.2023 y.	31.08.2023 y.
6	Boʻsh turgan bino va inshoot (Mashʼal FYTSH)	“Maroqand neft baza” mas’uliyati cheklangan jamiyati	Past Dargʻom tumani Usku qishlogʻi	0,105428	137,15	259 300 000,0	31.08.2023 y.	31.08.2023 y.
7	Boʻsh turgan bino va inshoot (Mingchinor FYTSH)	“Maroqand neft baza” mas’uliyati cheklangan jamiyati	Bulungʻur tumani “Gulzor” MFY	0,15	103,20	230 800 000,0	31.08.2023 y.	31.08.2023 y.
8	Boʻsh turgan savdo doʻkoni binosi	Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi	Bulungʻur tumani “Niyozmat” MFY	0,0113	113,3	105 476 000,0	31.08.2023 y.	31.08.2023 y.
9	Boʻsh turgan maishiy savdo kom-pleksining yarim yertoʻla qismi	Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi	Samarqand shahri “Koʻksaroy” MFY, Boʻstonsaroy koʻchasi, 34-uy, Yertoʻla-xonadon	0	1345,75	2 903 717 400,0	31.08.2023 y.	31.08.2023 y.
10	Boʻsh turgan sobiq qozonxona binosi	Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi	Samarqand shahri “Kushbakkoli” MFY, 13-A-uy	0,0211	211,23	422 533 300,0	31.08.2023 y.	31.08.2023 y.
11	Boʻsh turgan sobiq qozonxona binosi	Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi	Urgut tumani “Quyi Algar” MFY, Quyi Algar koʻchasi, 682-uy	0,02	120,0	122 690 000,0	31.08.2023 y.	31.08.2023 y.
12	Boʻsh turgan bino va inshoot (Doʻstlik FYTSH)	“Maroqand neft baza” mas’uliyati cheklangan jamiyati	Jomboy tumani Gul qishlogʻi.	0,0604	46,6	115 700 000,0	04.09.2023 y.	04.09.2023 y.
13	Boʻsh turgan bino va inshoot (Oqtepa FYTSH)	“Maroqand neft baza” mas’uliyati cheklangan jamiyati	Qoʻshrabot tumani “Qoʻrgʻon” MFY, Istiqbol qishlogʻi	0,1000	91	217 524 000,0	04.09.2023 y.	04.09.2023 y.
14	Boʻsh turgan bino va inshoot (F.Qosimova FYTSH)	“Maroqand neft baza” mas’uliyati cheklangan jamiyati	Samarqand tumani “Navbogʻ” MFY	0,06633	62,34	215 600 000,0	04.09.2023 y.	04.09.2023 y.
15	Boʻsh turgan bino va inshoot (Haqiqat FYTSH)	“Maroqand neft baza” mas’uliyati cheklangan jamiyati	Jomboy tumani Juriyat qishlogʻi	0,0731	102,35	202 500 000,0	04.09.2023 y.	04.09.2023 y.
16	Boʻsh turgan bino va inshoot (Guliston FYTSH)	“Maroqand neft baza” mas’uliyati cheklangan jamiyati	Jomboy tumani, Nayman qishlogʻi	0,0707	30,65	108 000 000,0	04.09.2023 y.	04.09.2023 y.
17	Boʻsh turgan bino va inshoot (M.Dangalov FYTSH)	“Maroqand neft baza” mas’uliyati cheklangan jamiyati	Past Dargʻom tumani “M.Dangalov” MFY	0,07082317	88,74	183 500 000,0	04.09.2023 y.	04.09.2023 y.
18	Boʻsh turgan bino va inshoot (Samarqand FYTSH)	“Maroqand neft baza” mas’uliyati cheklangan jamiyati	Payariq tumani “Birlashuv” MFY, Mirzachoʻl qishlogʻi	0,264135	158,44	229 641 000,0	04.09.2023 y.	04.09.2023 y.
19	Boʻsh turgan bino va inshoot (Yangiobod FYTSH)	“Maroqand neft baza” mas’uliyati cheklangan jamiyati	Payariq tumani “Kupaki” MFY, Kupaki qishlogʻi	0,074	187,76	268 435 000,0	04.09.2023 y.	04.09.2023 y.
20	Boʻsh turgan bino va inshoot (Choʻrosh FYTSH)	“Maroqand neft baza” mas’uliyati cheklangan jamiyati	Payariq tumani “Muhammadi” MFY, Muhammadi qishlogʻi	0,059478	148,66	263 784 000,0	04.09.2023 y.	04.09.2023 y.
21	Boʻsh turgan bino va inshoot (Qoraqalpoq FYTSH)	“Maroqand neft baza” mas’uliyati cheklangan jamiyati	Payariq tumani “Taraqqiyot” MFY, Mirishkor qishlogʻi	0,074	118,66	158 460 000,0	04.09.2023 y.	04.09.2023 y.
22	Boʻsh turgan bino va inshoot (A.Temur FYTSH)	“Maroqand neft baza” mas’uliyati cheklangan jamiyati	Toyloq tumani “Oʻrtaqishloq” MFY, Oʻrtaqishloq qishlogʻi	0,1068	406	472 300 000,0	04.09.2023 y.	04.09.2023 y.

Auksionga qatnashish tartibi toʻgʻrisida:

Ushbu obyektlarni “E-auksion” elektron savdo platformasi orqali sotib olish Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi “Elektron onlayn auksionlarni tashkil etish” aksiyadorlik jamiyati-ning “e-auksion.uz” sayt maydonchasida oʻtkazilishi rejalashtirilgan. Savdolar qatnashish istagida boʻlgan jismoniy va yuridik shaxslar xatlov va baholash ishlari yakunlangandan keyin “e-auksion.uz” saytida qoidalar bilan tanishgan holda roʻyxatdan oʻtib, savdo jarayonlarida qatnashishlari mumkin.

Roʻyxatdan oʻtgan jismoniy va yuridik shaxs-lar Davlat xizmatlari markazidan yoki “E-auksion” elektron savdo platformasi orqali elektron ra-qamli imzo sertifikatlarini olishi mumkin.

Auksionga qatnashish uchun ariza berish:

Roʻyxatdan oʻtgan va elektron raqamli im-zoga ega boʻlgan jismoniy va yuridik shaxslar

“e-auksion.uz” saytida yaratilgan “Shaxsiy ka-binet”lari orqali kirib, oʻtkaziladigan auksionlar roʻyxatidan oʻziga kerakli obyekt-ni tanlashi va u haqida tegishli maʼlumotga ega boʻlishlari mumkin. Auksion savdosiga qoʻyilgan har bir mol-mulkga tizim oʻziga xos takrorlanmaydigan LOT raqami beradi.

Auksion savdosida qatnashmoqchi boʻlgan jismoniy va yuridik shaxslar bino haqidagi maʼlumotlarga ega boʻlib, shu yerda koʻrsa-tilgan bank rekvizitlariga koʻrsatilgan zakalat mablagʻini toʻlagan (toʻlov hujjatida auksiondagi LOT raqami koʻrsatilishi kerak) holda auksion savdosiga qatnashish uchun elektron tarzda ariza berishlari lozim.

Elektron tarzda ariza berish jarayonida ish-tirokchi tomonidan elektron raqamli imzo bilan imzolagan holda ariza yuboriladi. Ariza elektron tarzda yuborilgach, ishtirokchining “Shaxsiy ka-binet”iga ariza qabul qilinganligi yoki qaytaril-ganligi toʻgʻrisida javob xabari keladi. Auksion

savdosida qatnashish uchun ariza berish saytda koʻrsatilgan muddatda toʻxtatiladi.

Auksion jarayoni:

Ishtirokchilar tomonidan savdoda qatnashish uchun ariza berilgandan soʻng savdo boshlana-digan kunda (vaqtda) ishtirokchilar e-auksion.uz saytida maxsus login va parollarini tergan holda “Shaxsiy kabinet”iga kiriladi va “Kabinet”ga oʻtil-gandan soʻng “Mening auksionlarim” boʻlimidan qatnashmoqchi boʻlgan auksion tanlanadi.

Shunda dastur tomonidan “Ishtirok etishni tasdiqlash” soʻraladi, ishtirok etish tasdiqlan-gandan soʻng savdo jarayonida ishtirok etish mumkin boʻladi (**auksion savdo oʻtkazish kuni soat 10:00 da boshlanadi**).

Auksionga qatnashuvchilarga dastur tomo-nidan alohida tartib raqami beriladi.

Auksionning boshlanishi ishtirokchilardan LOT-ni boshlangʻich narxdan bitta qadanga oshirilgan narxda sotib olish boʻyicha taklifni tasdiqlashni soʻrashdan boshlanadi. Agar taklif berilgandan

keyin 10 daqiqa davomida auksion ishtirokchi-laridan biri belgilangan qadanga oshirilgan LOT narxini tasdiqlasa, keyingi taklifni tasdiqlash uchun vaqt yana 10 daqiqaga uzaytiriladi.

Agar tasdiqlangan oxirgi taklifdan soʻng 10 daqiqa davomida keyingi oshirilgan LOT narxi boʻyicha taklif auksion ishtirokchilarining biron-tasi tomonidan tasdiqlanmasa, auksion auksion natijalari haqidagi bayonnomani avtomatik tarz-da shakllantirgan holda yakunlanadi. LOT narxi boʻyicha taklifni oxirgi tasdiqlagan ishtirokchi auksion gʻolibi deb topiladi. Shundan soʻng ishtirokchiga gʻoliblik bayonnomasi topshiriladi yoki ishtirokchi bilan kelishgan holda pochta joʻnatmasi orqali yuboriladi.

Savdolar natijalari boʻyicha gʻoliblik bayonno-masi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Sa-marqand viloyati hududiy boshqarmasiga taqdim etilgan sanadan boshlab 10 kundan kechikmay oldi-sotdi shartnomasi tuziladi.

Auksionda ishtirok etgandan soʻng gʻolib

boʻlmagan ishtirokchilarga zakalat pullarini qay-tarish ishtirokchilarning elektron tarzda bergan arizalariga asosan koʻrsatilgan hisob raqamga qaytarib beriladi yoki keyingi savdolarida qat-nashish uchun oʻtkazilishi mumkin.

Qoʻshimcha maʼlumotlarni olish mumkin boʻlgan manzil: Samarqand shahri Kamol Otaturk koʻchasi, 21-uy, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi (Davlat aktivlarini sotishga tayyorlash va sotish ishlari-ni muvofiqlashtirish boʻlimi).

Maʼlumot uchun telefonlar: (66) 233-96-64, 99-447-17-70

Faks: (66) 233-73-54.

Facebook dagi rasmiy sahifa: Sam Dav Aktiv

Veb-sahifa: privatization.davaktiv.uz

Internet tarmogʻidagi veb-sayt: samarqand@davaktiv.uz

Barcha yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, xorijiy sarmoyadorlar diqqatiga!

Oʻzbekiston Respublikasining Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi sizlarni birja savdolariga taklif etadi!

Savdoga chiqarilayotgan davlat aksiyalari:

- Samarqand viloyati Samarqand shahri Koʻksaroy maydoni, 1-uyda joylashgan aksiyadorlik jamiyati shaklidagi “Biznes Centr Samarqand” qoʻshma korxonasi ustav kapitalidagi 30,125 foiz davlat aksiya paketi;

aksiyalar umumiy soni:

- 12 050 dona oddiy aksiya;

bir dona aksiyaning nominal qiymati (soʻm):

- 5 000,0 (besh ming) soʻm;

bir dona aksiyaning savdoga qoʻyishdagi boshlangʻich narxi:

- 1 668 456,4315353 (bir million olti yuz oltmish sakkiz ming toʻrt yuz ellik olti soʻm 4315353 tiyin soʻm);

aksiyalar paketining umumiy boshlangʻich narxi:

- 20 104 900 000,0 (yigirma milliard bir yuz toʻrt million toʻqqiz yuz ming) soʻm;

LOTlar soni:

- aksiyalar bitta LOTda savdoga chiqariladi.

Talabgorlar 2023-yil 4-sentabrdan boshlab birja qoidalariga muvofiq, “Toshkent” RFBning maxsus plat-formasi orqali aksiya paketini sotib olish boʻyicha oʻz takliflarini berishlari mumkin.

Birja bitimi eng yuqori taklifni taqdim etgan talabgor bilan birja qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Murojaat uchun manzil: 100 400 Samarqand viloyati Samarqand shahri Kamol Otaturk koʻchasi, 21-uy.

Maʼlumot uchun telefonlar: (66) 233-73-54, 233-75-70.

Veb sayt: www.davaktiv.uz va www.samdavaktiv.uz.

Elektron pochta: samarkand@davaktiv.uz.

Investitsiya vositachisi: “Mulk-Sarmoya brokerlik uyi” AJ.

Manzil: Toshkent shahri Mustaqillik shoh koʻchasi, 107-uy.

Telegramm kanali: https://t.me/mulksarmoya.

Telefon: (90) 993-95-58.

Tel/faks: (71) 267-34-96.

Elektron pochta: info@ndvakt.uz

Veb sayt: www.ndvakt.uz

HURMATLI TADBIRKOR VA ISHBILARMONLAR!

Savdolar oʻtkazilishi jarayonida qonun bilan qoʻriqlanadigan huquqlaringiz buzilgan taqdirda Davlat aktivlarini boshqarish agentligining (71) 259-20-81 raqamli “Ishonch telefoni”ga murojaat qilishingizni maʼlum qilamiz!

Oʻzbekiston Respublikasining Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi maʼmuriyati.

DAʼVOLAR BOʻLSA

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Zokirov Axtatga (2000-yil 27-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulugʻbek koʻchasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Shakirov Djamshidjon Zakirovichga (2015-yil 11-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulugʻbek koʻchasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Nazimov Nasir Xasanovichga (2017-yil 5-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy koʻchasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Mansurova Marusyaga (2013-yil 7-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy koʻchasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Nar-zullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Idoyatov Muxiddin Idoyatovichga (2023-yil 18-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim koʻchasi, 5/1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Umedov Inoyat-ulloqa (2020-yil 16-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy koʻchasi, 64-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Ashu-rova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Djumanova Marifat Abduraxmanovnaga (2022-yil 12-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol koʻchasi, 110-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Poʻlatovich notarial idorasida marhum Xalilov Asamid-din Alibayevichga (2023-yil 12-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Toshtemirov Alisher Poʻlatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod koʻchasi, 35-uy, 3-xona.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Mir-zayeva Barno Joʻraqulovna notarial idorasida marhum Fayziyev Tuygʻun Astanakulovichga (2021-yil 2-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Mirzayeva Barno Joʻraqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso koʻchasi, 4-“A” uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Mir-zayeva Barno Joʻraqulovna notarial idorasida marhum Berdirasulov Salim Sobirovichga (2020-yil 18-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Mirzayeva Barno Joʻraqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso koʻchasi, 4-“A” uy.

BEKOR QILINADI

Jomboy tumanidagi “HUMO ISTIROHAT 777” mas’uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 309037208) dumaloq muhri va burchak tamgʻasi yoʻqolganligi sababli bekor qilinadi.

CHUMCHUQDAN QO’RQIB TARIQ EKILMAYDIMI?

Yoxud diplomli savodsiz kadrlar kimga kerak?

Yangi ma’muriyat vaqti-da ta’limga e’tibor ancha kuchaydi, ish gapdan amalga ko’chdi. O’qishga kirish uchun ajratiladigan kvotalar keskin oshirildi, o’qituvchilarning oylik maoshi ko’tarildi, o’quvchi, talaba, o’qituvchi paxta va boshqa majburiy ishlardan ozod qilindi, oliy ta’lim muassasalariga ma’lum darajada akademik erkinlik berildi va hokazo. Prezidentning saylovoldi dasturida ta’lim davlat siyosatining ustuvor yo’nalishi bo’lishi yana bir marta ta’kidlandi.



HOZIR REAL AHVOL QANDAY?
Mustaqillik yillarida maktab, litsey, kollej va oliy o’quv yurtlarini bitirganlarning ko’pchiligi bilim yo’qligini o’zimiz yaxshi bilamiz. Bu jarayonga bevosita yoki farzand-larimiz orqali qatnashdik. Ta’limdagi ahvol davlat darajasida tan olinyapti. Oliy o’quv yurtida tayyorlangan bitta savodsiz doktor qancha kasalning boshiga yetadi, savodsiz o’qituvchi qancha bolani besavod qoldi-radi?! Bundan kim jabr ko’radi? Shu xalq, ota-onalar, jamiyat, davlat.

Shifokorlarimizning bilimiga, malakasi-ga ishonmay, davolanish uchun chet elga ketayapmiz-ku. O’qituvchiga ishonmay, farzandimizni repetitora beryapmiz-ku. Savodsizlikka qarshi chora-tadbir, amaliy ish bo’lishi kerakmi? Agar savodsizlikka qarshi amaliy ish bo’lmasa, bu masalada hech qanday o’zgarish bo’lmaydi. Shuning uchun qaysi boshqicha, qachon va qayerda savodsizlikni tugatish kerak, degan savol o’z-o’zidan tabiiy ravishda paydo bo’la-di. Agar savodsizga diplom bersak, ular jamiyatning turli sohalariga tarqalib ketadi. Keyin hozirgiday butun jamiyatni tozalashga to’g’ri keladi, bu esa juda qiyin.

Lekin shu bilimi pastlar ham bizning far-zandlarimiz, begonasi yo’q. Ularning bilimi oliy ta’lim muassasasining minimal talabi-ga javob bermay, ikki baho olib, kursda qolsa yoki talabalikdan chiqarilsa, biz bu qarorni to’g’ri qabul qila olamizmi? Farzan-dimizni qo’lidan keladigan boshqa ishga,

kasbga, hunarga yo’naltira olamizmi? Agar mard bo’lib, bularni to’g’ri qabul qilmasak, ta’lim sifatida o’zgarish bo’lmaydi. Birinchi navbatda ota-ona, maktab o’qituvchilari bolaning qobiliyati, iqtidorini yaxshi bila-di. Shunga qarab, bolaga va ota-onalarga to’g’ri maslahat berish kerak.

Yaqin yillargacha akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy o’quv yurti-da o’qiganlarning hammasi bilimidan qat’i nazar, bitirganligi to’g’risida tegishli hujjat oldi. Shuning uchun aholi ongida o’qishga kirs bo’ldi, albatta, diplom beradi degan tushuncha paydo bo’ldi. Saralash, nazorat bo’lmaganligi uchun ham savodsizlik avjiga chiqdi. Vaholanki, iqtisod, ta’lim rivojlangan demokratik davlatlarda bilimsizlarga hatto attestat berilmaydi. Masalan, 2020-yilda Isroilni 12 yillik maktablarini tugatganlarning 73,4 foizi attestat olgan. Bu eng ko’p attestat berilgan yil hisoblanadi. Sanoati, fani, ta’limi rivojlangan Germaniyada universitetlarga hammaning hujjatini olavermaydi. Bu yerda to’rt yillik boshlang’ich maktabni bitirgan o’quvchilar bilimi va iqtidoriga qarab, tegishli o’rta maktablarda o’qishni davom ettiradi. O’rta maktablar to’rtga bo’linadi: gimnaziya (Gymnasium), real maktab (Realschule), aso-siy (bosh) maktab (Hauptschule) va birlash-gan maktab (Gesamtschule). Gimnaziya-da 5-sinfdan 13-sinf-gacha 9 yil o’qiydi va ikkita attestat oladi. Bittasi Fachhochschulreife 12-sinfni tugatgandan keyin, Hochschule reife attestati 13-sinfni tugatganlarga beriladi.

12-sinfni bitirganlar amaliy fanlar bilan bog’liq institutlar (politehnika, texnika, texnologiya, muhandislik, qishloq xo’jaligi, qurilish, ser-vis institutlari)ga, 13-sinfni tugatganlar esa universitetlarga kirishi mumkin. Olti yil davom etadigan real maktablarni tugatganlar texni-kumlarga va professional ta’lim muassasalari-ga kirishi mumkin, eng yaxshi o’qiganlari esa gimnaziyaning 11-sinfiga kirib o’qishni davom ettiradi. Besh yillik Hauptschuleni tugatgan-larga Hauptschulabschluss attestati beriladi va ular kam malaka talab qilinadigan ishlarda ishlashi yoki faqat professional bilim yurtlari-da o’qishni davom ettirishi mumkin. Olti yillik Gesamtschule maktabini tugatganlarning eng yaxshilari gimnaziyalarning yuqori sinflariga o’tkazilishi mumkin.

Demak, Germaniyada ham hammaga oliy o’quv yurtiga kirishga imkon yarata-digan attestat berilmaydi, bilimiga qarab, tabaqalashtiriladi. Bizda esa 2019-yilgacha kasb-hunar kollejida bir kun ham o’qimagan o’quvchiga tugatganligi to’g’risida hujjat berildi va u familiyasini yozolmasa ham oliy o’quv yurtiga kirish huquqiga ega bo’ldi va ba’zilari kirdi ham.

Mana shunday ahvolda universitet va institutlarni bilimsizlardan tozalash kerak-mi, yo’qmi? Agar Prezident boshlagan sifati ta’lim siyosatini amalda bajaramiz desak, talabni pasaytirib, ikkichiga, bilim-sizga diplom bermaslik kerak. Bu talablar-ga birinchi navbatda oliy ta’lim muassa-salari rahbarlari, vazirlik va undan yuqori davlat organlari va mansabdor shaxslar rioya qilishi kerak, bo’lmasa, bu siyosat boshlanmasdan barbod bo’ladi.

Turli xil bahonalarni, masalan, saylov bo’laypti - aholini norozi qilmaylik, ikki baho olgan talabalar yozadi, shikoyat qiladi keyin komissiya kelib, ovoramizni chiqaradi, ota-onalari qo’shilib janjal ko’tarsa, mamlakatning tinchligi buziladi deb ikkining o’rniga uch yo’yib talabni pasaytirmaslik kerak. Bu siyosatga qo’l urgan vaqtda uni amalga oshirishga mas’ul bo’lgan oliy ta’lim vazirligi bu yo’lda qanday qiyinchiliklar, to’siqlar, noroziliklar bo’lishini oldindan ko’rib bilmaganmi? Axir, har bir ishni bosh-lashdan oldin uning yaxshi-yomon tomon-lari, o’nqir-cho’nqirlari, ulardan qanday o’tish yo’llari tahlil qilinishi kerak-ku.

Oliy ta’lim muassasalariga qabul kvota-lari oshirildi, bundan ham ko’paytirish



rejalashtirilyapti. O’qiyman deganlarga eshiklar ochilyapti. Demak, davlat Konstitut-siyada yozilgan ta’lim olish huquqini ro’yob-ga chiqarish uchun keng imkoniyat yaratib beryapti. Lekin bu o’qishga kirganlarning hammasi diplom oladi, degani emas. Biti-ruvchilarning bilimi, ko’nikmasi va malakasi talabga javob berganlarigagina diplom berish kerak, xolos. Ehtimol, bundaylar 20 – 30 foiz bo’lar, ularning soni emas, sifati kerak.

O’tgan asrning 70-80 yillarida SamDU-ning matematika va fizika fakultetlari birin-chi kursiga qabul qilinganlarning 60-70 foizi diplom olgan. O’qiy olmaganalari, asosan haydalgan, kam qismi kursda qolgan, oson-roq fakultetlarga, kechki bo’limga o’tkazil-gan. O’zbekistonda tug’ilish darajasi juda katta, demak, tanlov bor. Shundan unumli foydalanish kerak, xolos.

Oliy o’quv yurtlari pachkalab diplom berayotgan bir paytda ba’zi ishlab chiqarish korxonalariga, xususiy va davlat tashkilot-lariga malakali muhandislar, texnologlar, mutaxassislar, iqtisodchilar, boshqaruvchi-lar, hatto maktablarga savodli o’qituvchilar yetishmaydi. Shuning uchun ba’zi mutaxas-sislar chetdan olib kelinyapti, bu ham fakt. Shulardan xulosa chiqarib, ta’lim sifatiga bo’lgan talabni aslo pasaytirmaslik kerak. Buni xalq, birinchi navbatda farzandlarini o’qitayotgan ota-onalar esdan chiqarmasligi lozim.

HOZIR IMTIHONLARDAN O’TOLMAGAN TALABALARNI NIMA QILISH KERAK?

Birinchi navbatda, u yoki bu sabablarga ko’ra fanlarni o’zlashtira olmayotgan tala-balarga imtihonga tayyorla-nishi uchun sharoit (vaqt va maslahat) yaratib berib, yana bir marta kafedraning tajribali o’qituvchilaridan iborat komi-siyasi og’zaki imtihon olishi va yana 2 baho olgan taqdir-da talaba fanni o’zlashtirishiga komissiyaning ko’zi yetsa, kursda qoldirishga yoki o’qigani bilan foydasi yo’qligiga ishonch hosil qilsa, talabalikdan chetlashtirishga qaror qilishi kerak. Agar og’zaki imtihonning adolatli bo’lishiga (ilti-moslar sababi) ko’zi yetmasa, qattiq nazorat ostida yozma imtihon olib, tekshirishni boshqa OTM dan so’rash kerak.

OTMlarning TALABALARI ORASIDA BILIMI PASTLARNING KO’PAYIB KETAYOTGANINING SABABI NIMA?

Birinchidan, buni hech kim yaxshi bil-maydi, chunki ta’lim jarayonlarini, xususan, bunday masalalarni uzluksiz, rejali o’rgana-digan tashkilot yo’q.

Ikkinchidan, 800 va undan ortiq soat dars bergan va skopusga maqola tayyor-lash bilan mashg’ul professor-o’qituvchi-niing bunga qo’li ham tegmaydi, bu bilan hech kim qiziqmaydi va buni hech kim so’ramaydi, ya’ni ta’limning quyi va yuqori organlari orasida ishonchli teskari aloqa yo’q.

Uchinchidan, shikoyatlar kuchayib zo’r kelganda, hamma ayb OTMga, o’qituvchi-niing bo’yniga yuklanadi va asosiy sabablar noma’lumligicha qolaveradi.

Asosiy sabablarning bittasi yetarli dara-

jada aniq. Maktablarda o’qiyotgan yuqori sinf o’quvchilarining ko’pchiligining bilimi past. Bilimlilarining soni oliy ta’limga ajra-tilayotgan kvotadan kamga o’xshaydi. Test natijalariga ko’ra, olgan ballari buni yaqqol ko’rsatadi. Masalan, 2022-2023-o’quv yilida SamDU kimyo yo’nalishi kunduzgi to’li-mining birinchi kursiga budget mablag’lari hisobiga qabul qilingan talabalarining testda to’plagan eng katta kirish bali 110,5 (bu maksimal kirish balining 58 foizini tashkil etadi), eng kichigi esa 74,6 ball (39 foiz), to’lov-kontrakt asosida kirganlarning eng past bali 57 (maksimal kirish balining 30 foizi). Demak, qabul qilingan 75 talabaning 10 ga yaqini 55 foizdan ko’proq, ya’ni 3 baholik ball to’plagan, qolganlari esa o’rta maktab dasturini 2 bahoga tugatgan.

Ta’limdagi sifatga ta’sir qilayotgan boshqa omillar ham borki, bu o’qishga kirishda davlat tomonidan berilayotgan asossiz imtiyozlarning ko’payganligi, ye-tarli ball to’plamagan abituriyentlarning tabaqalashtirilgan shartnoma asosida o’qishga qabul qilinishi, o’qish rus tilida bo’lgan guruhlariga o’tish ballarining o’ta pastligi va rus tilini bilimaganlarning qabul qilinishi, chet davlatlarning 4-5 darajali oliy o’quv yurtlariga imtihon topshirmasdan o’qishga kirgan tala-balarning respublikamizdagi oliy ta’lim muassasalariga qaytarilishi, o’rta mak-tablarda o’quvchilar bilimi va iqtidoriga qarab ajratilmaganligi (tabaqalashtirilma-nganligi) bilan bog’liq.

Ko’rinib turibdiki, bu ishlarning aksariyati vazirlik va undan yuqori davlat organla-ri-niing, mansabdor shaxslarning vazifasi.

Demak, birinchidan, mavjud kam-chiliklarni darhol tuzatish kerak.

Ikkinchidan, boshqa jiddiy kamchiliklarni chuqur va har taraflama o’rganishni bosh-lash, muhokama qilish, xulosa chiqarish va shu asosda kamchiliklarni uzil-kesil tu-gatishga qaratilgan qarorlar qabul qilish va uning ijrosini ta’minlash zarur.

O’rganish fakultetlardagi uslubiy ken-gashlardan boshlanadi. Kengash raisi-niing dars soatlarini kamaytirib, vakolatini kengaytirish kerak. O’quv prorektoriga qaraydigan uslubchilarning kamida bit-tasiga tabiiy yo’nalishlarda o’qiyotgan talabalarining bilimi pastligining sababini o’rganish vazifasini yuklab, har seme-strning oxirida hisobot va xulosa tayyor-lab, tavsiyalar ishlab chiqish vazifasini topshirish kerak.

O’quv jarayonlarini har taraflama tanqidiy o’rganish va shu asosda rivojlantirish, kam-chiliklarni bartaraf qilish yo’llarini taklif qilish bilan oliy ta’lim vazirligiga bog’liq bo’lma-gan kichikroq tadqiqot instituti uzluksiz rejali shug’ullansa va aynan shu amaliy masalalar tadqiqot mavzulariga aylansa, foydali bo’lar-di. Chunki ba’zi masalalarni chetning model sifatida olinayotgan ta’lim sistemalaridan o’rganishning iloji yo’q. Sababi, ta’limga salbiy ta’sir qiladigan bizning mentalitetimiz-ga xos bo’lgan tomonlari ularda umuman yo’q. Masalan, Janubiy Koreyada, Finlandi-yada, Germaniyada baho qo’yishda “ilti-mos” umuman yo’q. Bizda esa bu go’yoki “tabiiy ravishda joriy” qilingan. Iltimoslar va “tinchlikni saqlash” qoidasining yuqoridan joriy qilinishi yoki ikkichilarning shikoyatining qondirilishi ikkini uchga aylantirishga xizmat qilmoqda.

**Abdulla QUVVATOV,
SamDU dotsenti.**

TA’TILDAGI TOPSHIRIQ

O’quvchilarimdan Samarqand shahridagi ki-tob do’konlari haqida so’raganimda, ularning bor-yo’g’i 40 foizi bundan xabardorligi ma’lum bo’ldi. Kitob do’konlariga ko’p boraman, ammo kitob tanlash bilan bo’lib, xaridorlarga hech e’tibor qaratmagan ekanman. Bu safar ataylab, barcha ishlarimni tugatib, keyin kitob do’koniga otlandim.

Kech bo’lishiga qaramasdan, (soat millari 20:00 dan sal oshgandi) kitob do’koni xaridorlar bilan gavjumligiga guvoh bo’ldim. Do’kon xodimlari sizni tabassum bilan kutib oladi. Kitob tanlashga qiynalsangiz, yordam berishadi. E’tiborimni tortgan holat - har bir xodimning qo’lida kitob, ya’ni kitob-xon sotuvchi xaridorga bemalol o’zi sotayotgan kitob haqida tushuncha berishi mumkin. Do’kon aylanib, o’zimga kerak-li bo’lgan kitoblarni oldim. Yangi kelgan kitoblarni varaqlab ko’rdim. Kech bo’lishiga qaramasdan, mijozlar shoshmasdan kitob tanlar, sotuvchilar ish vaqtimiz tugadi deb shoshiltirmay-di. Do’kon aylanib sotuvchi qizni suhbatga tortdim.

- Ish vaqtimiz soat 20:00 gacha, mabodo xaridor ko’p bo’lsa yoki kitob tanlay olmasa, soat 21:00 gacha ishlaymiz. Ko’pchilik ishdan, o’qishdan chiqib keladi, shuning uchun kitobxonlarning vaqtini e’tiborga olamiz, - deydi do’kon sotuvchisi. - Ba’zi bir xaridorlar hatto ikki-uch soatlab qolib ketishadi. Biz bundan xursand bo’lamiz. Ko’pincha soat 11 dan 16 gacha odam ko’p bo’ladi, gohida kechqurun ham xaridorlar gavjum. Yonimizda universitet borligi sabab yosh-lar ko’proq kelishadi.

Dam olish kunlari oilaviy kelayotganlar ham bor. To’g’ri, ular juda ko’p emas, ammo bolalarini kichikligidan kitob-ga o’rgatishga harakat qilayotgan ota-onalar soni ortyapti.

Ota-onalar farzand-larini olib keladilar - bog’cha, maktab yoshidagi bolalar. Bolajonlar ota-onasiga “Kam kitob olib ber-dingiz, menga bu kitob ham yoqdi, buni ham olaman”, deb xarxasha qiladi. Ular farzand-lari tanlagan kitoblarni olib berishadi. Ularni yuz-ko’zlarida e’tirozni paygamaysiz, holbuki, ular “kelasi safar” yoki “kam-roq ol” deb aytishlari ham mumkin edi.

Har safar dam olish kunlari oilaviy kelganlarga qarab hava-simiz keladi. Ayrim oilalar bilan tanish bo’lib ketganmiz.

Sotuvchi bilan ancha suhbatlashib, kitob tanlab, vaqt qan-day o’tganini sezmay qolibman. Kassaga kelib qarasam, soat millari 21:00 ga yaqinlashayotgan ekan. Shunday bo’lsa-da, xaridorlar ko’p edi.

Maktabga borgach, ota-onalar bilan suhbatlashdim, bo-lalarini qachon kitob do’koni yoki kutubxonaga olib bergani haqida so’radim. Ayrim ota-onalar ishi ko’pligini, dam olish kunlari, albatta, olib borishlarini aytishdi. Yozgi ta’til paytida bu imkoniyatdan foydalanishlarini, bu haqda yangi o’quv yilida so’rashim, ilk insho shu haqda bo’lishini tayinladim. Hozir o’quvchilarim menga qo’ng’iroq qilib, bu haqida aytib berayot-ganlari ham bor. Ma’lumotlarga ko’ra, hozirda Samarqand shahrida yettita kitob do’koni mavjud ekan.

Siz ham oilangiz bilan kitob do’koniga borganmisiz?

Munisa SHAMSIYEVA.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O’zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro’yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 378 nusxada chop etildi. Buyurtma 418. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E’LONLAR: (66) 233-91-56

BO’LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug’ Tursunov ko’chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo’limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko’chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.HAYDAROV.

Navbatchi:

S.MARDIYEV.


Sahifalovchi:

S.MARDIYEV.



Saytimizga o’tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi belgilangan holda

